



O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

J.J.Nosirov¹

Z.N.Raxmatov²

¹⁻²Toshkent davlat transport universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7132403>

ARTICLE INFO

Received: 26th September 2022

Accepted: 28th September 2022

Online: 01st October 2022

KEY WORDS

investitsion

faoliyat, modernizatsiyalash,

sanoat

korxonalari,

moliyalashtirish

Bugun O'zbekiston mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish va modernizatsiyalash, ayniqsa, xususiy sektorni rivojlantirar ekan, investitsion faoliyatni jadallashtirishdagi xalqaro tajribalarga suyanmog'i lozim. Binobarin, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil va nufuzli tarzda kirib borayotganligi mamlakatning iqtisodiy-siyosiy sohalaridagi imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni talab qilishi tabiiydir.

ABSTRACT

Maqolada hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy faoliyatning muhim shakllaridan biri bo'lgan sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning nazariy huquqiy asoslari, uningamaldagi holati tahlili va uni takomillashtirish masalalari o'rganiladi.

Iqtisodiyotni texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash va kerak bo'lsa tubdan yangilash, xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, ya'ni tashqi va ichki bozordagi talablarga javob beradigan raqobatbardosh tovarlar va hizmatlarni ko'paytirish hamda yangilarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.



1-jadval

O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining dinamikasi (%da)¹¹

Moliyalashtirish manbalari	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2011-yilda 2021yilga nisbatan o'zgarishi, foiz hisobida.
Jami	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	1.000
Davlat byudjeti	10.4	8.0	8.5	8.1	7.8	6.0	-4.4
Byudjetdan tashqari fondlar	6.8	5.8	6.2	7.4	7.0	7.6	0.8
Xorijiy investitsiya va kreditlar	18.4	24.5	30.0	32.4	28.8	25.1	6.7
Korxonalar va aholi mablag'lari	60.02	56.6	49.9	46.9	47.3	50.2	-10.0
Banklar kreditlari va boshqa jalb qilingan mablag'lar	4.1	5.1	5.4	5.2	9.1	11.1	6.0

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan



Investitsiya muhiti – murakkab, keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Uning murakkabligi shundan iboratki, investitsiya muhiti mamlakat yoki hududda investitsiya faoliyatini amalga oshirishga asos bo'ladigan shartsharoitlarni yuzaga keltiruvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy

xarakterdagi omillar bilan bog'liq holda shakllanadi. Mamlakat investitsiya muhitini hududiy, mahalliy korxonalar, tarmoq va sektorlar investitsiya muhitiga ajratish mumkin. Shu bilan birga, “mamlakat investitsiya muhiti” bu tushunchalar ichida eng asosiysi hisoblanadi




1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar²

² Ergasheva Sh., Uzoqov A.: “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. O'quv qo'llanma. - T.: “Iqtisodiyot”, 2009.



Fikrimizcha, **investitsion faoliyat** - bu g'oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, buning natijasida barpo etilayotgan ob'ekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi.

Investitsion faoliyatda investorlar investitsiya resurslarini iqtisodiyot sohalariga foyda (daromad) olish yoki samaraga erishish uchun joylashtiradi. Bunda uning tarkibiy tizimini investitsion faoliyatning ob'ekti va sub'ektlari tashkil etadi (2-rasm).



2-rasm. Investitsion faoliyatning ob'ekti va sub'ektlari³

³ Jo'raev A.S., Xo'jamqulov D.Y., Mamatov B.S.: "Investitsiya loyihalari tahlili", Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma. - T.: "Sharq", 2003.



Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi, eng avvalo, o'z manfaatlarini ko'zlab, ya'ni foyda olish maqsadida harakat qiladilar. Chunki, yuqori foyda investorning kapital qiymati o'sishga imkon beradi.

Sanoat korxonalarida investitsiyalarning yo'naltirish ob'ekti quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ yangi uskuna va jihozlar, texnika vositalarini sotib olish va o'rnatish;
- ✓ yangi inovatsion g'oyalarni moliyalashtirish;
- ✓ yangi bino-inshootlar qurish va foydalanishga topshirish;
- ✓ asosiy fondlarni ta'mirlash, yangilash;
- ✓ mahsulot assortimentini ko'paytirish;
- ✓ kadrlar malakasini oshirish va boshqalar.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Mustaqillik boshlarida boshlangan iqtisodiyotni, shu jumladan sanoat korxonalarini texnik qayta qurollantirish, modernizatsiya qilish va uning investitsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlar bugunga kunda o'z samarasini bermoqda. Buning natijasida sanoat tarmog'i iqtisodiyotimizni yetakchi tarmog'iga aylandi. O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida qulay investitsiya muhiti shakllantirildi, ya'ni qulay investitsiya muhitini shakllanishida iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlariga erishilayotganligi va bozor institutlarining mavjudligi hamda eng avvalo, mustahkam qonunchilik bazasi, rivojlangan bank-kredit va investitsiyalashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar tizimlari yaratilganligi sabab bo'lmoqda.

References:

1. G'ozibekov D.G., "Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari". - T.: "Moliya", 2003
2. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo'minov N.G.: "Xorijiy investitsiyalar", O'quv qo'llanma. - T.: "Moliya", 2010.
3. Аладьин В.В.: "Инвестиционная деятельность субъектов Российской Федерации". - М.: "Социум", 2002. Игонина Л.Л.: "Инвестиции". - М.: "Экономист" 2005